



THE SCIENCE OF HISTORY AND HISTORICAL MEMORY

Qodirjon Maxkamov

Associate professor, PhD

Namangan State University

e-mail: maxkamov_82@mail.ru

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: memory, knowledge, historical consciousness, teacher, memory, awareness, value, education, upbringing, social memory.

Received: 24.11.25

Accepted: 25.11.25

Published: 26.11.25

Abstract: In the article, on the basis of historical knowledge, historical consciousness is formed and the basis of national social memory is revealed, which manifests itself in the activities of public life as a result of it. Systematic knowledge of the historical process, historical information, the importance of youth in the formation of national social memory are discussed. At the same time, special attention to the problems of national social memory in the philosophical imagination was analyzed from the point of view of scientific objectivity.

TARIXIY ONG VA IJTIMOYIY XOTIRA UYG'UNLIGI

Qodirjon Mahkamov

Dotsent, PhD

Namangan davlat universiteti

e-mail: maxkamov_82@mail.ru

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xotira, bilim, tarixiy ong, o'qituvchi, xotira, anglash, qadriyat, ta'lim, tarbiya, ijtimoiy xotira.

Annatsiya: Maqolada tarixiy bilim asnosida shakllanadigan tarixiy ong hamda uning natijalari o'laroq vujudga kelib ijtimoiy hayot faoliyatida namoyon bo'luvchi milliy ijtimoiy xotiraning o'zoro uyg'unligining asoslari ochib berilgan. Tarixiy jarayon to'g'risidagi muntazam bilimlar tarixiy ma'lumotlar hamda yoshlar milliy ijtimoiy xotirasini shakllanishidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Shu bilan birga, falsafiy tasavvurda milliy ijtimoiy xotira

muammolariga alohida e'tibor qaratish ilmiy
holislik nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

ГАРМОНИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И СОЦИАЛЬНОЙ ПАМЯТИ

Кодиржон Махкамов

Доцент, PhD

Наманган государственного университета

e-mail: maxkamov_82@mail.ru

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: память, знание, историческое сознание, учитель, память, осознание, ценность, образование, воспитание, социальная память.

Аннотация: В статье на основе исторических знаний формируется историческое сознание и раскрывается основа национальной социальной памяти, проявляющаяся в деятельности общественной жизни в результате его. Обсуждаются систематические знания исторического процесса, исторические сведения, значение молодежи в формировании национальной социальной памяти. При этом особое внимание к проблемам национальной социальной памяти в философском воображении анализировалось с точки зрения научной объективности.

Kirish. Tarix fani insoniyatning ibtidosi, evolyusiyasi, rivojlanish tendensiyalarini o'rganish bilan bir qatorda, o'tmish haqidagi bilimlarni shaxs ongida mustahkamlash orqali uning tarixiy xotirasini shakllantiradi. "O'quvchining ongida insoniyat tarixi har birimizga bog'liq bo'lgan, o'zligimizni ko'rsatadigan, bizning olis shajaramizni, naslu nasabimizni, insoniy qadru qimmatimizni belgilaydigan, muqaddas va mo'tabar voqelik ekanini tarkib toptirishi lozim. O'quvchi o'tmishimizga shunday munosabatda bo'lsa, ana shu yuksaklikdan turib unga qarasagina, tarix uning tafakkur mahsuliga aylangan taqdirdagina uni ma'naviy jihatdan boyitishi, ruhiyatiga qudrat baxsh etishini to'liq anglab yetishi zarur"[1,36].

"Tarix darsining samaradorligida rentabelli darslikning muhim rol o'ynashi sir emas. Biroq darslik qanchalik takomillashgan bo'lmasin o'qituvchining jozibali ma'ruzasi yoki suhbatlari o'rnini egallay olmaydi. Darslik qanchalik takomillashgan bo'lganligiga qaramasdan hayotning hamma tomonlarini o'z ichiga qamrab olish imkoniyatiga ega bulmaydi. Shunday ekan, dars davomida u yoki bu mavzuni bayon etishda o'qituvchi unga ijodiy yondashmog'i, o'rganilayotgan tarixiy davrni turmush bilan uzviylikda bog'lab o'rganishga erishmog'i lozim"[2,466].

Asosiy qism. “Ma’lumki, hozirgacha O‘zbekistonning xolis, mukammal yozilgan tarixi yaratilmagan” [3,3]. Tarixiy ongning ichki strukturaviy komponentlari bo‘lgan tarixiy qarash, tarixiy idrok, tarixiy tasavvur, tarixiy xotira, tarixiy tafakkur, tarixiy madaniyat kabi tushunchalar kishida tarixiy qarashni shakllantiradi. Tarixiy qarash esa o‘z navbatida ijtimoiy xotirani shakllanishida muhim o‘rin tutadi. U, birinchidan, o‘tmishdagi voqea-hodisalarni haqiqiy tarix nuqtai nazaridan, ya’ni qanday bo‘lsa, shu holicha e’tirof etish va baholashni, ikkinchidan, individning muayyan mafkuraviy platformadan, muayyan pozitsiyadan turib tarixga munosabatini bildiradi. Ayni paytda, tarixiy qarash, tarixiy idrok va tarixiy tasavvurning ishtirokisiz shakllangan tarixiy xotira o‘zgaruvchan xususiyatga ega bo‘ladi. Bunda tarixiy idrok voqea va hodisalarni tarixiy qarash vositasida qabul qilib va o‘zlashtirib, tarixiy tasavvurga aylantiradi. Bu tasavvur ongda jamlanadi hamda qayta tahlil va tekshirish asosida, tasdiqlanadi va u xotirani tashkil qiladi.

Shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayotida tarixiy xotiraning roli katta, u tarixni tushunish, anglashning zaruriy elementi hisoblanadi. Tarixiy xotirada uning sub’ektining qiziqishlari, ehtiyojlari va manfaatlariga taalluqli bo‘lgan holda o‘tmish haqidagi barcha saralangan bilim va tasavvurlar jamlanadi. Shu bilan birga, vorisiylik qonuniyatiga ko‘ra, ajdodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy merosda saqlanib, avlodlar davomiyligini ta’minlaydi. Bu “zanjir” jarayonida tarixiy xotira o‘tmish haqidagi bilimlarni o‘zida saqlovchi muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. Uning ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishi milliy ijtimoiy xotirada ko‘rinadi. O‘z navbatida ijtimoiy xotira yangi axborotlarni qayta ishlash orqali muttasil rivojlanib boradi va u mohiyatan o‘tmishga emas, balki kelajakka qaratilgan bo‘ladi. “Tarixiy madaniyat” tushunchasi esa ijtimoiy xotira bilan ikki tomonlama taqozo etuvchi munosabatda bo‘ladi. Ya’ni, tarixiy ongning yuksakligi tarixiy madaniyatga erishganlikni bildirsa, o‘z navbatida tarixiy madaniyatlilik ijtimoiy xotirani oliy darajaga ko‘tarilishini ta’minlaydi.

Tafakkur orqali anglangan tarixiy ong ma’rifatli jamiyat qurishning muhim omili bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Buni quyidagilarda ko‘rish mumkin:

birinchidan, tarixiy tafakkur orqali inson o‘z milliy tarixini anglaydi, uning munosib ahamiyatini his etadi, o‘zining kimligini anglaydi, bugungi kundagi hayotining mazmunini tushunadi;

ikkinchidan, insonda tarixiy tafakkurning shakllanishi unda dunyoqarashni rivojlantiradi, shaxs sifatidagi fenomenini vujudga keltiradi;

uchinchidan, tafakkur natijapsi o‘laroq shakllangan tarixiy ong buyuk ajdodlarni anglab yetish, o‘zini yaxlit millatning bir qismi sifatida his qilish tuyg‘usini paydo qiladi.

Tarixiy ong kishiga ma'naviy qudrat berib, har bir fuqaroni ma'naviy, ruhiy va axloqiy jihatdan yangilaydi va shunisi bilan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Tarixiy ongning shakllanishida milliy ijtimoiy xotiraning o'rne beqiyosdir. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mamlakatning kelajagi bo'lgan barkamol avlodni Vatan tarixiga hurmat, tarixiy xotira, tarixiy baho, tarixiy faxr tushunchalari ruhida tarbiyalash uchun yoshlarga tarixiy bilimlar berishni yanada yuqori saviyaga ko'tarish, milliy davlatchiligimizning eng yangi tarixini o'rganish va targ'ib qilish, barcha bosqichdagi ta'lim tizimida o'quvchi yoshlar tarixiy ongini rivojlantirish maqsad qilib qo'yildi. "Hozirgi g'oyat murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni turli zararli ta'sirlardan asrash yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda"[4]. Yuqoridagilarga asoslanib, biz tarixiy ongning haqiqiy qarama-qarshiligini aniqlash uchun bir qator nazariy shartlarni olamiz:

- 1) tarixiy ong – faoliyatning ijtimoiy-madaniy shakli va shu bilan birga uning asosidir;
- 2) tarixiy ong bir shaklda bo'lgan faoliyatning meros qilib olingan sharoitlariga munosabat orqali paydo bo'ladi;
- 3) tarixiy ong ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tarixiy universal shaklda, ijtimoiy ob'ektiv mohiyat sifatida gavdalanadi.

U jamiyatda murakkab ahamiyat kasb etib jamiyat tarixiyligini o'zida aks ettirsa, ikkinchi tomonda jamiyat tarixiy tajribasini o'zida jamlab boradi. Shu bilan birga, madaniy uzatish funksiyasini bajaradi.

Tarixiy tafakkur tarixiy voqelikka, xususan, tarixiy davrda o'zgarib, rivojlanib boradigan haqiqat sifatida yondashuvni rivojlantiradi. Zero, har qanday millat o'zligini anglash uchun tarixini bilishga intiladi. Ammo bu tarix kim tomonidan qanday yoziladi? Bunda eng asosiysi haqqoniy tarixni soxtasidan ajrata olish qobiliyatining borligidir. Bu mustaqil xalqaro hamjamiyatda munosib o'rnini topishi uchun o'z tarixiy ildizlarini ko'rsata bilishiga ham bog'liqdir.

Ma'lumki, jamiyatda sodir bo'ladigan har qanday tarixiy hodisa odamlarning ijtimoiy munosabatlar asnosidagi faoliyat natijasidir. Bunday hodisalar ko'pincha jamiyatdagi ijtimoiy guruhlar, qatlamlarning manfaatlari asosida yoritilgan va baholangan. Ayniqsa, "sho'ro imperiyasi" davrida kommunistik mafkura mustamlaka millatlar tarixini yoritishda mafkuralashgan, qolipga solingan, bir yoqlama soxta tarixshunoslikni vujudga keltirdi. Bu jarayon fashizm mafkurachilaridan biri bo'lgan Gebbelsning "Yolg'onni qayta-qayta takrorlayversang, u rostga o'xshab qoladi"[5,8]. degan tamoyiliga o'xshash edi. Lekin tarix mantig'iga ko'ra yolg'on hech qachon rostga aylanmaydi, soxtalik bir kun kelib baribir

haqiqatga o'rnini bo'shatib berishiga ham tarix guvoh. Shuning uchun ham tarixiy hodisalarni yoritish va baholash siyosiy, mavkuraviy, milliy va mahalliy manfaatlardan ustun bo'lishi holis va haqqoniy tarixiy ongning shakllanishida ustivorlik kasb etadi.

Biz o'tmishimizni xaqqoniy o'rganish masalasiga kirishar ekanmiz, dastavval, bu dunyoqarashmi yoki tarixiy faktlarga asoslanganmi, shuni bilib olishimiz lozim. Boshqacha qilib aytganda, obektiv vaziyatni aks ettiruvchi tarixiy faktlar va hujjatlar "davlat siri" sifatida maxfiy saqlangan. Bu esa tariximizni soxtalashtirishga olib kelgan, ommaga xaqiqiy tariximizni tarixiy faktlar, hujjatlar asosida yetkazib berishda muammolarni keltirib chiqargan.

Tarixiy faktlar, hujjatlar muayyan hodisalarga nisbatan kishilarda ijobiy yoki salbiy ehtiros uyg'otsa, mantiqiy-falsafiy tahlil esa aql chirog'ini yoqib, haqiqatning mohiyatini bilish usuliga aylanadi. Bu esa o'z navbatida tarixiy voqealarga xolisona yondashish, ulardan saboq olish va amaliy faoliyatda istifoda qilishga asos bo'ladi.

Tariximiz o'rganishdan asosiy maqsad – undan saboq olishdir. Chunki har qanday millat tarixi yorqin kunlardan tashqari qora kunlarni ham o'z ichiga oladi. Shu jumladan, Sharq uyg'onish davrining beshigi bo'lgan yurtimizda nafaqat fan, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat rivojlangan, balki shu bilan birgalikda milliy yoki etnik nizolar, hokimiyat talashishlar taraqqiyotning umumiy yo'nalishiga putur yetkazgan va qaram bo'lishiga olib kelgan davrlarni bilamiz. Bugungi kundagi eng muhim vazifa – milliy mustaqilligimizni mustahkamlash – o'tmishda yo'l qo'ygan xatolarga yo'l qo'ymaslik.

Inson nafaqat mustaqil tarixiy tafakkur hajmiga ega bo'lishi, balki ushbu tajribani tushunishi, uni aks ettira olishi kerak. U nafaqat tarixchi, balki faylasuf hamdir; xususan, u falsafiy tasavvurlarida tarixiy tafakkur muammolariga alohida e'tibor qaratish lozim. Biroq, o'z tarixiy tafakkurini aks ettirmasdan ham yetarlicha yaxshi tarixchi bo'lishi mumkin (garchi eng yuqori darajaga ega bo'lmasa ham).

O'zbekistonda ijtimoiy-gumanitar ta'limning eng dolzarb vazifasidan biri yoshlarni yuksak ma'naviyat hamda boy axloqiy va ijtimoiy tamoyillar asosida tarbiyalash muammolari bilan uzviy bog'liq. Shu boisdan ham "tarixning chuqur ildizlariga murojaat qilish, shu bilan birga zamonaviy O'zbekiston tarixini, islohotlar va yangilanishlarni, uning jahon hamjamiyati bilan uyg'unlashuvini, xalqimizning tarixiy-madaniy merosiga mutlaqo yangicha munosabatni o'rganish dolzarb vazifa hisoblanadi"[6,54].

Jamiyatning yangi rivojlanish bosqichida, avvalo, mamlakat kelajagi bo'lmish barkamol avlodda Vatan tarixiga hurmat uyg'otish, tarixiy xotira, tarixiy baho, tarixiy faxr tushunchalarini ular tafakkurida chuqur va mustahkam rivojlantirish, milliy davlatchiligimiz eng yangi tarixining to'liq mazmun-mohiyatini anglatish, ularni sodiqlik, mardlik, Vatanga mehr va sadoqat ruhida

tarbiyalash maqsadi barcha bosqichdagi ta'lim tizimining eng muhim vazifasidan biri bo'lmog'i zarur.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab ilmiy tadqiqot markazlarida tarixiy ongni rivojlantirish va mustahkamlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Kanadaning the Department of Integrated Studies in Education at McGill universiteti tomonidan ingliz tili o'qituvchilarining tarixiy ongini rivojlantirishga doir tadqiqotlar, Angliyaning London's Global univeritetida tarixiy memoriy obidalarining yoshlar tarixiy ongini rivojlantirishidagi ahamiyati kabilar tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga, xalq tarixiy ongining yo'qolib borishi va uning o'rnida yangicha tarixiy ongning vujudga kelishiga doir tadqiqotlarni Germaniyaning zur Förderung und Entwicklung von reflektiertem Geschichtsbewusstsein ilmiy markazi faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin. Ushbu ilmiy tadqiqot markazlari faoliyatlari, ayniqsa, yoshlar tarixiy tafakkurini rivojlantirishda milliy madaniy merosning funksional vazifalariga katta e'tibor qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bugungi kunda Fransiyaning Nissa shahrida yoshlar tarixiy xotirasini rivojlantirishni nazarda tutuvchi milliy tarixiy bog' faoliyati buning yorqin isbotidir. Bog' o'rta asr Fransiya tarixi manzalarini aks ettirib, u yerda har yili turli tarixiy tadbirlar va musobaqalar o'tkazilib kelinadi. Bog' nafaqat tarixiy madaniyatni targ'ib qilmoqda, shu bilan birga turizm sifatida ham davlat byudjetiga katta miqdorda tushum keltirmoqda.

Yangi O'zbekistonni milliy ma'naviy taraqqiy ettirish, halqimizning ongi-tafakkurida eski ma'naviy-mafkuraviy aqidalarni yo'qotib, jamiyatimizda yoshlarning milliy ruh va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish masalasi eng dolzarb masala hisoblanadi. Mustaqillik xalqimizga milliy o'zlikni, bebaho qadriyatlarimizni, eng muhimi, milliy tafakkurimizni qaytarib berdi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki vaqtlaridanoq, ayniqsa, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni azaliy milliy qadriyatlarimiz, boy ma'naviy boyligimiz, dunyo tamadduniga ulkan hissa qo'shgan o'tmishimiz, milliy ruhiyatdagi o'zligimiz va globallashuv ta'siri ostidagi zamonaviylik jarayonini rivojlantirish asnosida amalga oshirishga bu voqelikda yoshlar tarbiyasi va ularning tarixiy tafakkurini shakllantirish orqali yangi bosqichga olib chiqishga katta e'tibor berilmoqda. "Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, "ommaviy madaniyat" kabi tahdidlar kuchayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur"[7,15].

O'zbekiston ochilmasdan Respublikasi milliy mustaqillik davrida, halqimizning dunyoqarashi, ongi-tafakkurida yangilanish jarayoni va tub o'zgarishlarni boshlab bermoqda. Xalqimizni birlashtiradigan, bunyodkorlik faoliyatiga safarbar etadigan, uning ezgu maqsadlari va hayotiy manfaatlarini o'zida mujassamlashtirgan milliy ma'naviyatni tiklash ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmoqda. Jamiyatimiz oldida turgan ezgu maqsadlarga erishish, milliy o'zlikni qayta anglash, unga rahna soluvchi turli "madaniyat"lar xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan yoshlarni voyaga yetkazish zaruriyati hozirgi davr talablariga mos yangi milliy ruh asosida milliy g'oyani shakllantirishni taqozo qilmoqda. Demak, jamiyatning tarixiy ma'naviy ildizlari, urf-odat, an'alariga asoslangan ma'naviy hayotning asosiy tamoyillarini tiklamay turib, kelajak hayotni qurib bo'lmasligini anglashimiz kerak. Xususan, prezidentimiz aytganlaridek, "Milliy ma'naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz hayotiga sindirishda, ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati katta.

Afsuski, hozirgi paytda bu fanlar rivoji zamondan ochilmasdan qolmoqda. Xususan, biz uchun nixoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o'tmishimizdagi ko'pgina voqealarning mazmun-mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda"[8,24-25]. Shundan ko'rinib turibdiki, yoshlarda o'tmish tariximizga, buyuk bobokalonlarimizga hurmat hissini uyg'otish, ular bilan faxrlanish, ularning jahon tarixida tutgan o'rinlarini yoshlar ongiga singdirish Vatanimiz kelajagini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi.

Xulosa. Jamiyatda millatning ruhiy ma'naviy xususiyatlari tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanadi. O'zbekistonning mustahkam davlatchilik siyosati, yuksak vatanparvarlik ma'naviyati uzoq tarixga borib taqaladi. Mustaqillik mafkurasining shakllanishi, uning yoshlar ongidan chuqur o'rin egallashida tarixiy xotira muhim ahamiyatga ega. Xar qanday millatning jipslashuvi, uning jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashi ham tarixiy xotira bilan uzviy bog'liq[9,130]. Shuningdek, turkiyalik olim, professor Usmon Turon tarixiy xotiraning millat rivojidadagi o'rni haqida shunday yozadi: "bashariyat xofizasida mavjud bo'lgan tarix shuurda yashar ekan, millatlar shaxsiyatini o'stirishga, madaniyat va mafkuralarni quvvatlantirishga xizmat qiladi. O'z xalqi tarixini bilmagan millatlar xotira va idroklarini yo'qotib qo'ygan davdirlarga o'xshaydi. Bu alpozda yashayotgan millatlarning yuksalishiga yoxud o'zligini muhofaza etishlariga, hatto ularning tarqalib ketmasligiga kafolat yo'q"[10,5].

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yhati:

1. Ходжаев Б.Х. Ўқувчиларда тарихий тафаккурни ривожлантиришнинг нейропедагогик тизими. Илмий хабарнома. Махсус сон. Андижон. – Б.36.
2. Тошпўлатов Т., Гаффорв Я. Тарих ўқитиш методикаси. Тошкент: Университет, 2002. –Б.466. (496)
3. Б.Ахмедов. Ўзбекистон таризи манбалари. Тошкент: Ўқитувчи, 2001. –Б.3.
4. Халқ сўзи. 2019 йил 10 май.
5. С.Мамашокиров. Тарихий тафаккур мезони./Тафаккур журналі.4-сон.1999 йил.Б-8.
6. Тарих ва ўзликни англаш III: Ўзбекистон ва Германияда тарихни ёритиш. – Тошкент: Фан, 2008. – Б.54.
7. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга кураимиз. Тошкент: Ўзбекистон. 2018. – Б.15.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик – миллий ғоямизнинг пойдеворидир. [Матн]: -Тошкент: Тасвир, 2021. –Б.24-25.
9. Маматов О.В. Миллий мафкуранинг шаклланишида ворисликнинг аҳамияти. Монография. –Наманган. “Fazilat org texservis”.2016. –Б.130.
10. Усмон Турон. Туркий халқлар мафкураси. –Тошкент: 1995.-Б.5.